


YONG'INNI BOSHLANG'ICH BOSQICHDA OLDINI OLISH (TEMIR YO'L TRANSPORTI HARAKATLANUVCHI TARKIBIDA)



Kamilov Xasan Mirzaxitovich

PhD, dotsent, Toshkent davlat transport universiteti

Rozimova Gulbahar Sharafatdin qizi
talaba, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Temir yo'l transporti infratuzilmalarida yong'in profilaktikasi tadbirlarini o'tkazish, yong'in xavfsizligi bo'yicha belgilangan talablarning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek temir yo'l transportida yuz beradigan xavfli jarayonlardan biri yong'inni birinchi bosqichda tezkor bartaraf etish.

Kalit so'zlar: Yong'in, texnologik, sanoat, ekologik, va mehnat xavfsizligi, granit, avtomatik-avtonom, tungus, tahdid

Hozirgi kunda «O'zbekiston temir yo'llari» Aktsiyadorlik Jamiyati (keyingi o'rnlarda AJ) tomonidan 2022 yilda 7066,2 mln tonna yuk va 11392,8 ming yo'lovchi tashilgan, 2023 yil yanvar-mart holatiga ko'ra 1547,2 mln yuk va 3344,9 ming yo'lovchi tashilgan. Kelgusi 2024 yilda ushbu ko'rsatkichlarni yanada oshirish va yangi sifat darajasiga olib chiqish rejalashtirilgan [1].

«O'zbekiston temir yo'llari» AJning asosiy maqsadi temir yo'l transportiga bo'lgan talabni qondirish, raqobatbardoshlikni oshirish, temir yo'l sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun davlat va xususiy shaxslar o'rtasida sheriklik tizimini yaratish [1].

«O'zbekiston temir yo'llari» AJ mamlakatdagi yuk aylanmasi bo'yicha yetakchi transport tashkilotlaridan biri bo'lganligi sababli, jamiyat rahbariyati temir yo'l transporti xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi - bu yo'lovchilar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi faktlar yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish, tashilayotgan yuklarning xavfsizligi, temir yo'l transporti infratuzilmasi va harakat tarkibining xavfsizligi, ekologik xavfsizlikka qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar majmui.

Temir yo'l transportida xavfsizlik muammosi murakkab va uni bir necha tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- texnologik xavfsizlik - temir yo'l transportidagi texnologik jarayonlar xavfsizligi;
- sanoat xavfsizligi - yuk ko'tarish inshootlari va bosim ostida ishlaydigan uskunalar xavfsizligi;
- mehnat muhofazasi - temir yo'l ishchi-hodimlarining mehnat faoliyatiga ta'sir qiladigan zararli va xavfli omillardan muhofaza qilish;
- yong'in xavfsizligi - temir yo'l transporti tashiladigan yuklarni va boshqa obyektlarni yong'in xavfsizligini ta'minlash;
- ekologik xavfsizlik - temir yo'l transporti obyektlari ta'siridan ekologik xavfsizlik;

Ma'lumki, yong'inlar juda katta talofatlarga olib keluvchi xavf sanaladi, jumladan temir yo'l transportidagi halokatlari oqibatida sodir bo'ladigan yong'inlar, shuningdek

temir yo'llar, signalizatsiya, yoritish moslamalari, markazlashtirish va blokirovka qurilmalarining nosozligi tufayli sodir bo'ladigan, poyezd dispetcherlari, temir yo'l stantsiyasi navbatchilari xatolari, lokomotiv mashinistlarining ehtiyyotsizligi, eskirgan harakatlanuvchi tarkib modellaridan foydalanish oqibatida yuzaga keladigan yong'inlar ulkan moddiy va jismoniy yo'qotishlarga olib keladi [2].

Yong'inlarni bartaraf etishda, sodir bo'lgan yong'inni boshlang'ich bosqichda tezda lokalizatsiyalash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bu bosqichda yong'inni bartaraf etish temir yo'l transporti infratuzilmasining tarkibiy qismlarida muhim masalalardan biri hisoblanadi.


Temir yo'l transporti infratuzilmalarida yong'in profilaktikasi tadbirlarini o'tkazish va yong'in xavfsizligi bo'yicha belgilangan talablarning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek yong'in xavfsizligini ta'minlash «O'zbekiston temir yo'llari» AJning "Harbiylashtirilgan qo'riqlash" boshqarmasining yong'in xavfsizligi bo'limi tomonidan amalga oshiriladi [3]. Bo'lim hodimlari temir yo'l transporti obyektlari va harakatlanuvchi poyezdlarni temir yo'l stantsiyalaridan jo'nab ketishdan oldin yong'in xavfsizligi holatini doimiy ravishda nazorat qiladilar. Ular yong'in xavfsizligi talablarining buzilishini o'z vaqtida aniqlash va yong'in xavfi paydo bo'lgan hollarda tegishli choralarni ko'rish uchun mas'ullar. Ammo ushbu xizmat yong'in sodir bo'lgandan so'ng harakatga keltiriladi. Yong'in tasnifi, yonuvchi moddalarni miqdori va tarkibiga qarab hamda yong'in sodir bo'lgan obyekt turi hisobga olinib yong'in texnikalari va vositalari tezda jamlanadi va qo'llaniladi. Sanab o'tilgan ishlar va yong'in sodir bo'lgan obyektga xizmat hodimlarini yetib borish ma'lum vaqt talab qiladi. Bu esa sodir bo'lgan yong'inni ikkinchi bosqichga, ya'ni kuchli alanga olib, katta energiya hosil qilib yonishi uchun sharoit tug'diradi. Bu o'z navbatida tiklab bo'lmaydigan moddiy va jismoniy zarar yetkazilishiga sabab bo'ladi.

Harakatlanayotgan temir yo'l tarkibida yoki turg'un temir yo'l obyektlarida sodir bo'lgan yong'inni boshlang'ich bosqichda tezkor bartaraf etish "Harbiylashtirilgan qo'riqlash" boshqarmasining yong'in xavfsizligi bo'linmalari tomonidan bajarilish imkonи mavjud emas, ya'ni texnik imkonи bo'lmaydi.

Ushbu harakatlanayotgan temir yo'l tarkibida yoki turg'un temir yo'l obyektlarida sodir bo'lgan yong'inni boshlang'ich bosqichda tezkor bartaraf etishda zamonaviy yong'in o'chirish texnikalaridan va jihozlaridan foydalanish yuqori samara beradi va yong'in tufayli yuzaga keladigan moddiy hamda jismoniy zarar ko'lamenti keskin kamayishiga olib keladi.

Mazkur masalani harakatlanayotgan temir yo'l tarkibidagi vagonlarga yoki turg'un temir yo'l obyektlariga hozirgi paytda, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llanilayotgan, sodir bo'lgan yong'inni boshlang'ich bosqichda avtomatik-avtonom (Tungus, Granit, Elide fire va boshqalar) [4] ravishda ishga tushib bartaraf etish vositalaridan foydalanish orqali yechish imkoniyati mavjud.

Bu qurilmalar A sinfdagi (qattiq moddalar), B (suyuq moddalar), C (gazsimon moddalar) va E sinfidagi (kuchlanish ostida bo'lgan elektr jihozlar) yong'inni yong'in xavfi sezilgan zahoti avtomatik-avtonom ravishda o'chirish uchun mo'ljalangan bo'lib, bunda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inni ikkinchi bosqichga o'tishiga yo'l qo'ymasdan, alanganishi hamda mavjud infratuzilmalarga zarar yetishini oldini oladi (1-rasm).



1-rasm. Avtomatik-avtonom (Tungus, Granit, Elide fire) yong'in o'chirish jihozini yarim ochiq vagonga o'rnatish sxemasi

Shuning uchun bunday qurulmalarni temir yo'l transporti infratuzilmalarida yong'inni o'chirish va bartaraf etishda tadbiq etish sodir bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy va ma'naviy zararni oldini olish imkoniyati yaratadi.

Adabiyotlar:

1. railway.uz/uz/gazhk/statisticheskie-danneye/;

2. Сулейманов С., Камилов Х.М. оценка социально-экономической эффективности технических решений по улучшению условия труда поездных диспетчеров // развитие экономической науки на транспорте: экономическая основа будущего транспортных систем: сборник научных статей VII международной научно-практической конференции под ред. н.а. журавлевой. 2019. – СПб.: Изд-во общество с ограниченной ответственностью “институт независимых социально-экономических исследований - оценка”, 2019. – С. 751-758.

3. <http://railway.uz/ru/gazhk/web/6830/>;

4. <https://antifire.org/product/tungus-9/>.

5. <https://www.farsat/uz/files/2022-dekabr/3971/>;